


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEKANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING HUDUDIIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING.....	349
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	



QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUARISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR

Toshpulatov Asronbek Mutalibovich

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi



Annotatsiya. Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklayotgan muammolarga bag'ishlangan. Shuningdek, **qurilish** materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining cheklanishiga texnologik uskunalarning eskirganligi, mahalliy xomashyodan foydalanish samaradorligining pastligi, resurs va energiya sarfining yuqoriligi, ishlab chiqarish jarayonlarining yetarli darajada modernizatsiya qilinmaganligi, malakali mehnat resurslari hamda zamonaviy boshqaruv tizimlarining yetishmasligi kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalanish va mahsulot hajmini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarishni cheklovchi omillar, mahalliy xomashyo, resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalar, modernizatsiya, mehnat unumdorligi, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article is devoted to the problems limiting production volume in construction materials industry enterprises. In particular, factors such as outdated technological equipment, low efficiency in the use of local raw materials, high consumption of resources and energy, insufficient modernization of production processes, and the lack of qualified human resources and modern management systems negatively affect production volume in construction materials industry enterprises. Eliminating these problems is an important prerequisite for ensuring the full utilization of production capacity and increasing output.

Keywords: construction materials industry, production volume, factors limiting production, local raw materials, efficient use of resources, modern technologies, modernization, labor productivity, competitiveness.

Аннотация. Статья посвящена проблемам, ограничивающим объёмы производства на предприятиях промышленности строительных материалов. В частности, на снижение объёмов производства на предприятиях промышленности строительных материалов негативно влияют такие факторы, как устаревшее технологическое оборудование, низкая эффективность использования местного сырья, высокий уровень потребления ресурсов и энергии, недостаточная модернизация производственных процессов, а также нехватка квалифицированных трудовых ресурсов и современных систем управления. Устранение указанных проблем является важным условием обеспечения полного использования производственных мощностей предприятий и увеличения объёмов выпуска продукции.

Ключевые слова: промышленность строительных материалов, объём производства, факторы, ограничивающие производство, местное сырьё, эффективное использование ресурсов, современные технологии, модернизация, производительность труда, конкурентоспособность.

KIRISH

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida “qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish” [1] ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Biroq mazkur maqsadlarga erishish qurilish materiallari sanoati korxonalarida mavjud ishlab chiqarish muammolarini bartaraf etishni talab etadi. Xususan, eskirgan texnologiyalar, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmasligi, xomashyo va energiya resurslaridan samarasiz foydalanish hamda logistika bilan bog'liq muammolar ishlab chiqarish hajmining o'sishini cheklovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bois ushbu muammolarni iqtisodiy jihatdan tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklayotgan muammolarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda tarmoqning texnologik rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, S. Ibrohimov o'z tadqiqotida qurilish materiallari sanoatida zamonaviy va ekologik xavfsiz texnologiyalardan foydalanish, qayta ishlanadigan xomashyolarni keng joriy etish hamda resurs tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan [10].

O. Abdumannopov va X. Askarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqarish holati tahlil qilinib, korxonalarda ishlab chiqarish hajmining oshishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida texnologik uskunalarning eskirishi, investitsiya yetishmasligi va mavjud xomashyo salohiyatidan to'liq foydalanilmasligi ko'rsatib o'tilgan [3].

S.O. Ibragimov o'z ilmiy ishida qurilish materiallari korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalarini asoslab bergan [8].

I. Achilov tadqiqotida esa sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish, mahsulot sifatini oshirish va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni tashkil etish korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholangan [4].

M.A. Ubaydullayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va inson kapitalidan samarali foydalanish ishlab chiqarish hajmini kengaytirishning muhim sharti sifatida qayd etilgan [14].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklayotgan muammolar ko'p jihatdan texnologik, iqtisodiy va tashkiliy omillar bilan bog'liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun korxonalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklayotgan omillarni aniqlash uchun tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik, qiyosiy va omilli tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, xomashyo va resurslar samaradorligi, texnologik holat hamda mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Tahlil uchun rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy manbalar va tarmoq korxonalari faoliyatiga oid ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklayotgan omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy muammolar texnologik eskirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmasligi, xomashyo va energiya resurslaridan samarasiz foydalanish hamda ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi bilan bog'liq. Ayrim korxonalarda zamonaviy uskunalar va innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi mahsulot hajmi va raqobatbardoshligining oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash va boshqaruv tizimini takomillashtirish korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish imkonini beradi. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklayotgan asosiy muammolar tahlili quyidagi omillar asosida amalga oshirildi.

Shuningdek, mehnat unumdorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish hajmini kengaytirishning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi. Olib borilgan tahlil asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun texnik va texnologik yangilanishlarni jadallashtirish, resurs samaradorligini ta'minlash hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi **aniqlandi (1-jadval)**.

**1-jadval**

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklayotgan asosiy muammolar tahlili quyidagi omillar asosida amalga oshirildi.¹

№	Ishlab chiqarish hajmini cheklovchi omillar	Muammoning mazmuni	Ishlab chiqarishga ta'siri	Takomillashtirish yo'nalishlari
1	Texnologik uskunalarning eskirishi	Korxonalarda zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining yetarli darajada joriy etilmaganligi	Mahsulot ishlab chiqarish quvvati va mehnat unumdorligi pasayadi	Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish
2	Xomashyo va resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi	Mahalliy xomashyo imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligi, resurslar sarfining yuqoriligi	Ishlab chiqarish xarajatlari oshadi va mahsulot tannarxi ko'tariladi	Resurs tejamonkor texnologiyalar va chiqindisiz ishlab chiqarishni rivojlantirish
3	Energiya sarfining yuqoriligi	Ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligi past usullardan foydalanish	Mahsulot tannarxining oshishi va raqobatbardoshlikning pasayishi	Energiya tejamonkor uskunalarini qo'llash
4	Investitsiya va moliyaviy resurslar yetishmasligi	Ishlab chiqarishni kengaytirish va texnik yangilash uchun mablag'larning cheklanganligi	Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish imkoniyatlari kamayadi	Investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish
5	Mehnat unumdorligining pastligi	Malakali kadrlar yetishmasligi va mehnat jarayonlarining yetarli darajada tashkil etilmaganligi	Ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi	Kadrlar malakasini oshirish va mehnatni ilmiy tashkil etish
6	Boshqaruv tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi	Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan cheklangan foydalanish	Ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlik pasayadi	Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish

Omllarning o'zaro ta'sir zanjiri:

Xomashyo ta'minoti → Logistika → Tannarx → Bozor raqobatbardoshligi → Ishlab chiqarish hajmi

Bunda asosan: xomashyo yetkazib berishdagi uzilishlar transport xarajatlarini oshiradi. Transport xarajatlari mahsulot tannarxini ko'paytiradi. Tannarxning oshishi mahsulot narxini oshiradi. Narxning oshishi bozor talabini pasaytirishi mumkin. Natijada ishlab chiqarish hajmi qisqaradi.

Energiya ta'minoti → Texnologiya holati → Mahsulot tannarxi → Moliyaviy imkoniyatlar

Bunda asosan: eski texnologiyalar ko'p energiya sarflaydi. Energiya xarajatlarining o'sishi korxona xarajatlarini oshiradi. Moliyaviy resurslarning kamayishi modernizatsiyani kechiktiradi. Modernizatsiyaning kechikishi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi (**2-jadval**).

2-jadval

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklayotgan asosiy muammolar²

№	Asosiy omil	Boshqa omillar bilan o'zaro bog'liqligi	Yakuniy ta'sir
1	Xomashyo ta'minoti muammolari	Xomashyo yetkazib berishdagi uzilishlar transport (logistika) muammolari bilan bog'liq. Xomashyo narxining oshishi moliyaviy xarajatlarni ko'paytiradi va mahsulot tannarxiga ta'sir qiladi. Xomashyo sifati esa texnologiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi pasayadi, mahsulot hajmi kamayadi.
2	Energiya ta'minoti muammolari	Sement, shisha, g'isht kabi materiallar ishlab chiqarishda energiya asosiy xarajatlardan biri hisoblanadi. Energiya narxining oshishi moliyaviy bosimni kuchaytiradi, eski texnologiyalardan foydalanish esa energiya sarfini yana oshiradi.	Tannarx oshib, mahsulot raqobatbardoshligi pasayadi va ishlab chiqarish hajmi cheklanadi.

¹ Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va tarmoq muammolari tahlili asosida ishlab chiqilgan.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ishlanmasi

3	Eskirgan texnologiyalar	Zamonaviy uskunalarning yetishmasligi energiya sarfini oshiradi, malakali kadrlarga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Texnologik qo'liqlik mahsulot sifati va bozor talabiga moslashish imkoniyatini pasaytiradi.	Ishlab chiqarish unumdorligi kamayadi, mahsulot sifati va eksport imkoniyatlari cheklanadi.
4	Moliyaviy resurslar cheklanganligi	Moliyaviy yetishmovchilik texnologiyalarni yangilash, energiya tejakor uskunalarni sotib olish, xomashyo zaxirasini shakllantirish va kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini cheklaydi.	Korxona modernizatsiyasi sekinlashadi va ishlab chiqarish o'sishi cheklanadi.
5	Malakali kadrlar yetishmasligi	Yangi texnologiyalarni joriy etish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarur. Kadrlar yetishmasligi eski uskunalaridan samarasiz foydalanishga va ishlab chiqarishda yo'qotishlarga olib keladi.	Mehnat unumdorligi pasayadi, mahsulot sifati barqaror bo'lmaydi.
6	Logistika muammolari	Xomashyo manbalari va iste'mol bozorlarining uzoqligi transport xarajatlarni oshiradi. Bu mahsulot tannarxi, moliyaviy holat va bozordagi raqobatbardoshlikka ta'sir qiladi.	Xomashyo yetkazib berish kechikadi, tayyor mahsulot sotuvi qiyinlashadi.
7	Bozor talabining o'zgarishi	Bozordagi talab pasayishi korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir qiladi. Bu esa yangi texnologiyalarga investitsiya qilish va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatini kamaytiradi.	Ombor zaxiralari ortishi va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanmaslik holati yuzaga keladi.
8	Ekologik talablar	Ekologik standartlarni bajarish uchun yangi texnologiyalar, filtrlar va tozalash tizimlariga investitsiya talab etiladi. Bu moliyaviy xarajatlarni oshiradi, ammo uzoq muddatda samaradorlikni oshirishi mumkin.	Qisqa muddatda xarajatlarni ortadi, uzoq muddatda barqaror ishlab chiqarish ta'minlanadi.

Moliya → Texnologiya → Kadrlar → Ishlab chiqarish samaradorligi

Bunda asosan: investitsiya yetishmasligi yangi texnologiyalarni joriy qilishni cheklaydi. Yangi texnologiyalar bo'lmasa, malakali kadrlardan samarali foydalanish qiyinlashadi. Bu mehnat unumdorligi va mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda quyidagi xulosa ishlab chiqilgan. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini chekllovchi omillar ichida eng kuchli o'zaro ta'sirga ega bo'lgan omillar quyidagilar hisoblanadi:

- Moliyaviy resurslar cheklanganligi – barcha boshqa muammolarni hal qilish imkoniyatini belgilaydigan asosiy omil.

- Eski texnologiyalar – energiya sarfi, mahsulot sifati va mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir qiladi.
- Xomashyo va energiya ta'minoti – ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi asosiy shartlar.
- Logistika va bozor talablari – ishlab chiqarilgan mahsulotning iqtisodiy samaradorligini belgilaydi.
- Kadrlar salohiyati – barcha texnologik va tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirishning asosiy omili.

Shu sababli qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun alohida muammoni emas, balki xomashyo–energiya–texnologiya–moliya–kadrlar–bozor tizimi sifatida kompleks yondashuv asosida hal qilish talab etiladi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalari faoliyatiga ta'sir qiluvchi muammolar darajasi ularning ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, mahsulot tannarxi, raqobatbardoshligi va investitsion imkoniyatlarga ta'siri bilan belgilanadi. Tahlil natijasida muammolarni yuqori, o'rta-yuqori va o'rta ta'sir darajasiga ajratish mumkin.

Tahlil natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish hajmiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar xomashyo ta'minotidagi uzilishlar, energiya resurslari narxining oshishi hamda texnologik jihozlarning eskirishi hisoblanadi. Ushbu omillar "Yuqori" ta'sir darajasiga ega bo'lib, ular korxona faoliyatining uzluksizligini bevosita belgilaydi. Birinchi navbatda, xomashyo ta'minotidagi uzilishlar ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishiga olib keladigan eng muhim xavf omili hisoblanadi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishda sement klinkeri, ohaktosh, gips, qum va shag'al kabi resurslar asosiy xomashyo bo'lganligi sababli, ularning o'z vaqtida yetkazib berilmasligi ishlab chiqarish liniyalarining bekor turishiga sabab bo'ladi. Natijada korxona buyurtmalarni o'z vaqtida bajara olmaydi, ishlab chiqarish hajmi kamayadi va moliyaviy yo'qotishlar yuzaga keladi. Ikkinchi muhim omil energiya resurslari narxining oshishi hisoblanadi. Qurilish materiallari sanoati energiya talabchan tarmoqlardan biri bo'lib, elektr energiyasi va tabiiy gaz xarajatlari mahsulot tannarxining katta qismini tashkil etadi. Energiya narxlarining oshishi mahsulot tannarxining ko'tarilishiga, foyda marjasining qisqarishiga hamda bozorda narx bo'yicha raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi.

Ayrim hollarda korxonalar ishlab chiqarish hajmini qisqartirishga majbur bo'ladi. Uchinchi asosiy omil texnologik jihozlarning eskirishi bilan bog'liq. Eskirgan uskunalar ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi, energiya va xomashyo sarfini oshiradi hamda mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (3-jadval).



3-jadval

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmiga ta'sir darajasi tahlili³

Muammo	Ta'sir darajasi tahlili	Asosiy sabablar	Korxona faoliyatiga umumiy ta'siri
Xomashyo ta'minotidagi uzilishlar	Yuqori	Qurilish materiallari ishlab chiqarish jarayoni to'liq ravishda sement xomashyosi, ohaktosh, qum, shag'al, gips va boshqa resurslarning o'z vaqtida yetkazib berilishiga bog'liq. Ta'minotdagi uzilishlar ishlab chiqarish liniyalarining bekor turib qolishiga sabab bo'ladi.	Ishlab chiqarish hajmi qisqaradi, buyurtmalar bajarilishi kechikadi, korxonaning moliyaviy yo'qotishlari ortadi.
Energiya resurslari narxining oshishi	Yuqori	Sement, g'isht, shisha va boshqa materiallar ishlab chiqarishda elektr energiyasi va tabiiy gaz katta ulushda xarajat talab qiladi. Energiya narxining o'sishi mahsulot tannarxiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.	Mahsulot narxi oshadi, bozorda raqobatbardoshlik pasayadi, ayrim hollarda ishlab chiqarish hajmi qisqaradi.
Texnologik jihozlarning eskirishi	Yuqori	Ko'plab korxonalarda ishlab chiqarish uskunalarning ma'naviy va jismoniy eskirishi kuzatiladi. Eski texnologiyalar energiya va mehnat sarfini oshiradi.	Ishlab chiqarish quvvatlaridan samarasiz foydalanish, mahsulot sifati pasayishi va ishlab chiqarish xarajatlarning ko'payishiga olib keladi.
Moliyalashtirish muammolari	O'rta-yuqori	Yangi texnologiyalarni joriy etish, uskunalarini yangilash va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta miqdorda investitsiya talab qilinadi. Moliyaviy resurslar yetishmasligi ushbu jarayonlarni cheklaydi.	Korxonaning modernizatsiya jarayonlari sekinlashadi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish imkoniyati kamayadi.
Kadrlar tanqisligi	O'rta	Zamonaviy avtomatlashtirilgan uskunalar bilan ishlashga qodir muhandislar, texnologlar va texnik mutaxassislar yetishmasligi mavjud.	Mehnat unumdorligi pasayadi, ishlab chiqarish jarayonlarida xatolar ko'payishi va innovatsiyalarni joriy qilish qiyinlashishi mumkin.
Logistika xarajatlari	O'rta	Xomashyo manbalari va iste'mol bozorlarining uzoqligi, transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi xarajatlarni oshiradi.	Mahsulot tannarxi o'sadi, yetkazib berish muddati uzayadi va korxona raqobat pozitsiyasi zaiflashadi.
Bozor talabining pasayishi	O'rta-yuqori	Qurilish sohasidagi faollik iqtisodiy holat, investitsiyalar va mavsumiy omillarga bog'liq. Talabning kamayishi ishlab chiqarish rejalariga ta'sir qiladi.	Tayyor mahsulot zaxiralari ortishi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmasligi va daromadlarning kamayishi kuzatiladi.
Ekologik cheklovlar	O'rta	Ekologik talablarni bajarish uchun filtrlar, chiqindilarni kamaytirish texnologiyalari va ekologik uskunalar qo'shimcha investitsiyalar talab etiladi.	Qisqa muddatda xarajatlarda oshadi, ammo uzoq muddatda ekologik barqarorlik va korxonaning bozordagi mavqei yaxshilanadi.

Natijada korxona ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalana olmaydi va ishlab chiqarish tannarxi ortadi. "O'rta-yuqori" ta'sir darajasiga ega omillar orasida moliyalashtirish muammolari va bozor talabining pasayishi alohida ahamiyatga ega. Investitsiya resurslarining yetishmasligi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishni cheklaydi. Bu esa uzoq muddatda korxonaning texnologik rivojlanish sur'atlarini sekinlashtiradi. Bozor talabining pasayishi esa tayyor mahsulot zaxiralarning ortishiga, ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq band bo'lmisligiga va korxona daromadlarining kamayishiga olib keladi. Kadrlar tanqisligi, logistika xarajatlari va ekologik cheklovlar nisbatan o'rtacha ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Malakali muhandis va texnik mutaxassislarining yetishmasligi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi hamda

innovatsion texnologiyalarni joriy etishni qiyinlashtiradi. Logistika xarajatlarining yuqoriligi mahsulot tannarxini oshirsa, ekologik talablarni bajarish qisqa muddatda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Shu bilan birga, ekologik modernizatsiya uzoq muddatli istiqbolda energiya samaradorligini oshirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish hajmiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar resurslar bilan ta'minlanganlik va texnologik salohiyat bilan bog'liq. Ularni quyidagi ustuvorlik bo'yicha baholash mumkin (4-jadval).

4-jadval

Ishlab chiqarish hajmiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni resurslar bilan ta'minlanganlik va texnologik salohiyat bo'yicha ustuvorlik darajasida baholash⁴

Ustuvorlik	Omil	Ta'sir darajasi	Ishlab chiqarishga ta'siri
1	Xomashyo ta'minotidagi uzilishlar	Juda yuqori	Ishlab chiqarishning to'xtashi, buyurtmalar kechikishi
2	Energiya resurslari narxining oshishi	Juda yuqori	Tannarx oshishi, foyda va raqobatbardoshlik pasayishi
3	Texnologik jihozlarning eskirishi	Juda yuqori	Samaradorlik va sifat pasayishi, xarajatlar ortishi
4	Moliyalashtirish muammolari	O'rta-yuqori	Modernizatsiya va investitsiyalar sekinlashishi
5	Bozor talabining pasayishi	O'rta-yuqori	Ishlab chiqarish hajmi va daromadlarning kamayishi
6	Kadrlar tanqisligi	O'rta	Mehnat unumdorligi pasayishi
7	Logistika xarajatlari	O'rta	Tannarx va yetkazib berish muddatlari oshishi
8	Ekologik cheklovlar	O'rta	Qisqa muddatda xarajatlar oshadi, uzoq muddatda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi

Umuman olganda, korxonalar ishlab chiqarish hajmini barqaror oshirish uchun xomashyo **ta'minoti** zanjirini diversifikatsiya qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, eskirgan uskunalarni modernizatsiya qilish, investitsiyalarni keng jalb etish hamda logistika va kadrlar boshqaruvini takomillashtirishga ustuvor **e'tibor** qaratishlari zarur (5-jadval).

5-jadval

Muammolarning ta'sir darajasi bo'yicha guruhlanishi⁵

Ta'sir darajasi	Muammolar	Tahliliy xulosa
Yuqori ta'sir darajasi	Xomashyo ta'minoti, energiya narxlari, texnologik jihozlarning eskirishi	Ushbu omillar ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga bevosita ta'sir qiladi va korxona quvvatlaridan foydalanish darajasini belgilaydi.
O'rta-yuqori ta'sir darajasi	Moliyalashtirish muammolari, bozor talabining pasayishi	Bu omillar korxonaning strategik rivojlanishi, investitsiya faolligi va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.
O'rta ta'sir darajasi	Kadrlar tanqisligi, logistika xarajatlari, ekologik cheklovlar	Ushbu omillar asosan ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot tannarxi va boshqaruv jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Bunday choralar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va korxonalarning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini cheklovchi eng muhim omillar - xomashyo ta'minoti, energiya resurslari va texnologik jihozlarning holati hisoblanadi. Chunki ushbu uch omil ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va mahsulot tannarxini belgilaydi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar yetishmasligi barcha muammolarni hal qilish imkoniyatini cheklovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, moliyaviy imkoniyatlar cheklangan holatda korxona yangi texnologiyalarni joriy qila olmaydi, energiya samaradorligini oshira olmaydi va xomashyo ta'minoti barqarorligini ta'minlash qiyinlashadi. Shu

⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ishlanmasi

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ishlanmasi



sababli korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun birinchi navbatda modernizatsiya, energiya tejamkor texnologiyalar, barqaror xomashyo bazasi va samarali moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2026-yil 16-fevraldagi** "Mamlakat taraqqiyotining **2030-yilgacha** mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-21-son**⁶ Farmoni.
2. Abdullayev A.N. *Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi* // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2024. – **5 bet.**
3. Abdumannopov O., Askarov X. *O'zbekistonda zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarish: holati, muammolar va istiqbollar* // *Topical Issues of Technical Sciences*. – 2026. – **4(5). – 152–156-betlar.**
4. Achilov I. *Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni sifat menejmenti tamoyillari asosida tashkil etishdagi mavjud muammolar* // *Marketing Jurnal*. – 2025. – **№ 9.**
5. Adilxodjayev A.I. *Qurilish materiallari*. Darslik. – Toshkent, 2020. – **520 bet.**
6. A'zamov Q.S., Axmedov B.A. *Qurilish materiallari texnologiyasi*. Darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – **432 bet.**
7. Ergashev B.X., Abdullayev R.A. *Qurilish materiallari va buyumlari*. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – **240 bet.**
8. Ibragimov S.O. *Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari va takomillashtirish yo'llari* // *Marketing*. – 2024. – **56–61-betlar.**
9. Ibragimov S.O. *Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish*. Monografiya. – Toshkent, 2022. – **214 bet.**
10. Ibrohimov S. *O'zbekistondagi qurilish materiallari sanoati va barqaror qurilish va qayta ishlanadigan materiallar* // *Universal International Scientific Journal*. – 2025. – **2(1). – 169–174-betlar.**
11. Mirzayev S.M., Ismoilov A.A. *Qurilish materiallari*. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Toshkent davlat transport universiteti nashriyoti, 2021. – **256 bet.**
12. Otajanov U. *Namangan viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash holati va tahlili* // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2023.
13. Otajanov U. *Qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish*. Monografiya. – Namangan, 2023. – **186 bet.**
14. Ubaydullayev M.A. *Qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqaruv strategiyalarini takomillashtirishda mehnat samaradorligini oshirish* // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2024. – **4 bet.**

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100